

Besh_tashabbus_mahallada



Besh_tashabbus_mahallada

“O‘zbekiston yoshlar forumi-2021” doirasida “Besh tashabbus – mahallada” shiori ostida Termiz shahar hokimi, 1-sektor rahbari sovrini uchun mahalla yoshlari o‘rtasida sport musobaqalari qizg‘in davom etmoqda.

Bugun, 17-dekabr kuni 1-sektor hududida joylashgan mahallalarda sportning mini-futbol, voleybol va armresling turlari bo‘yicha musobaqalar bo‘lib o‘tdi.

Unda mahallalarning har bir ko‘chasi bo‘yicha uyushmagan yoshlardan shakllantirilgan sport jamoalari faol ishtirok etishmoqda.

Ma‘lumot o‘rnida aytish lozimki, har bir mahalladan g‘oliblikni qo‘lga kiritgan yoshlar jamoalari 18-dekabr kuni 26-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabi va “Guliston” MFYdagi sport maydonlarida bo‘lib o‘tadigan sport musobaqalarining final bosqichida o‘zaro bellashadilar.

